

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 364.1:316.72(075)

**“TAZIYQ VA ZO‘RAVONLIK” TUSHUNCHALARI: TURLARI VA OILADA OLDINI OLISH
MEXANIZMLARI****ПОНЯТИЯ "УГНЕТЕНИЕ И НАСИЛИЕ": ВИДЫ И МЕХАНИЗМЫ ПРОФИЛАКТИКИ В
СЕМЬЕ****CONCEPTS OF “PRESSURE AND VIOLENCE”: TYPES AND MECHANISMS OF
PREVENTION IN THE FAMILY**

Tursunboyev Zuxrob Toxir o‘g‘li 
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada “tazyiq va zo‘ravonlik” tushunchalari, turlari, “oilaviy zo‘ravonlik” tushunchasining mazmun-mohiyati, konseptual asoslari, belgilari, uni oldini olishning huquqiy asoslarini tadqiq etilgan. Shuningdek maqolada oilaviy munosabatlarda tazyiq va zo‘ravonliklarni oldini olishda konformizm omilining falsafiy-antropologik xususiyatlarining falsafiy jihatlari yoritilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены понятия, виды “притеснения и насилия”, содержание понятия “насилие в семье”, концептуальные основы, признаки, правовые основы его предупреждения. Также в статье освещаются философские аспекты философско-антропологических особенностей фактора конформизма в предупреждении притеснений и насилия в семейных отношениях.

Abstract

The article explores the concepts, types of “harassment and violence”, the meaning and essence of the concept of “domestic violence”, conceptual foundations, signs, legal framework for its prevention. The article also covers philosophical aspects of the philosophical-anthropological features of the conformism factor in the Prevention of freshness and violence in family relations.

Kalit so‘zlar: tazyiq, zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, gender stereotip.

Ключевые слова: домогательства, насилие, домашнее насилие, физическое насилие, сексуальное насилие, психологическое насилие, экономическое насилие, гендерные стереотипы.

Key words: oppression, violence, domestic violence, physical violence, sexual violence, psychological violence, economic violence, gender stereotype.

KIRISH

Bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik qilishning oldini olish – eng muhim va dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda ayollarni har qanday tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalashlaridan biri sifatida belgilangan. Binobarin, xalqimizga yot bo‘lgan zo‘ravonlik harakatlariga butunlay barham berish, xotin-qizlarimizni har qanday tazyiqlardan himoya qilish oldimizda turgan muhim vazifalardandir.

Zo‘ravonlik salbiy ijtimoiy hodisa bo‘lib, juda murakkab mavzu hisoblanadi. Uning qurbonlari ko‘pgina hollarda sukut saqlashga majburlar va bu zo‘ravonlik qurbonlari bo‘lgan xotin-qizlar bilan ishlash, muloqotga kirishish alohida yondashuvni talab etadi. Zo‘ravonlik xotin-qizlarning ruhiy, ijtimoiy, psixologik, jismoniy salomatligiga zarar etkazibgina qolmaydi, balki uni ijtimoiy jihatdan tartibga solinmagan shaxs sifatida jiddiy ijtimoiy oqibatlariga ham olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonliklarni oldini olishning ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik jihatlari N.M.latipova, O.Musurmonova, N.R.Nishonova, M.X.Xolmatova, G.Matkarimova, X.Nasrullayeva, N.Jo‘rayeva, M.Nurmatova, E.Sultonova, S.X.Safayeva, Sh.Sodiqova, G.J.G‘aniyeva, M.Q.G‘afforova kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.I.Amanbayeva, A.V.Belyayev, M.V.Bogomaz, L.S.Vigotskiy, Dj.Karpara, V.A.Sitarov, G.K.Selevkolar oilaviy zo'rvonliklarni oldini olishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini, G.M.Andreyeva, V.V.Antipov, L.P.Bogdanova, A.Varga, I.F.Dementyeva, T.R.Kirimov, P.R.Novikov, YE.G.Silyayeva, L.B.Shneyderlar oiladagi shaxslararo munosabatlar, oilaviy nizolarni oldini olishda psixologik xizmatning zarurligi, psixologik maslahatning asosiy talablarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan.

Oilaviy zo'rvonliklarga qarshi kurashishda genderli yondashuv imkoniyatlari va gender identiklik masalalari bir qancha xorijiy tadqiqotlarda keng ko'lamda o'z o'rnini topgan. Jumladan, ushbu masalani konstruktiv paradigma nuqtai-nazaridan tadqiq etgan olimlar qatoriga R.Konnella, P.Burdye, Dj.Skott, V.Spayk Peterson, O.A.Voroninalarni kiritish mumkin. Xotin-qizlar masalasi, ularni ijtimoiy himoya qilish haqidagi hozirgi zamon o'zgarishlari nuqtai nazaridan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan N.Najib, E.Xelen, A.Kitchen, M.Kovalskiy, D.Ruts, L.Xusniykabi jahonning etakchi olimlari tomonidan xalqaro gumanitar huquq doirasida maishiy zo'rvonlik holatlari va ularning huquqiy echimlari, zo'rvonlikdan jabr ko'rgan ayollarni ruhiy va psixologik tushkunlikdan chiqarishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ijtimoiy zo'rvonliklarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlar albatta bir necha muammolar, jumladan, inqiroz va ertangi kunga bo'lgan ishonchsizlik, hayotiy muhim qarorlarni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga olmaslik, inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarining o'z qiymatini yo'qotishi va turli xil ruhiy muammolarning uyg'unlikdagi ko'rinishlaridan kelib chiqadi. Agar biz yangi O'zbekistonda yashashni istasak, birinchi navbatda, fuqarolik va insonlikning qadriga etishimiz va uni himoya qilish zarurligini to'liq tushunib olishimiz kerak bo'ladi.

Ijtimoiy falsafa metodlari asosida tazyiq va zo'rvonliklarni ilmiy tahlil qiladigan bo'lsak, ularning kelib chiqishi asosan, gender stereotiplar – jamiyatda erkaklar va ayollarning o'ri va roli haqidagi an'anaviy tushunchadan kelib chiqqan holda, turli jinsdagi vakillarning xususiyatlari va xulq-atvori to'g'risidagi umumiy fikrning ta'siri natijasida bo'lishi mumkin.

Gender stereotiplar ushbu jamiyatda mavjud bo'lgan gender rollar bilan chambarchas bog'liq bo'lib ularni saqlash va ko'paytirishga, xususan, gender stereotiplar gender tengsizlikni saqlashga xizmat qiladi. Ushbu holatni bartaraf etishda jinsga qarab diskriminatsiyaning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni tushunish va hisobga olish, ya'ni gender sezgirlik muhim ahamiyatga egadir.

Dunyodagi ijtimoiy holat tahlili asosida zo'rvonlik mavjud bo'lgan oilaviy munosabatlarning tabiatini tashkil etuvchi beshta asosiy ko'rinishlarini alohida qayd etish mumkin. Bunday munosabatlarda ushbu zo'rvonliklarning barchasi, yoki bir nechasi yoxud ulardan biri albatta mavjud bo'ladi. Ushbu ko'rinishlar shuningdek, ma'lum bir vaqt davomiyligida o'rin almashinishi yoki biridan ikkinchisiga o'tib borishi mumkin:

Jismoniy zo'rvonlik – “og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari etkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'rvonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralarini qo'llash bilan tahdid qilishga nisbatan ishlatiladi. Bunday zo'ravaonlik turiga ulotirish, tupurish, shapatlash (mushtlash) yoki boshqa predmetlar bilan zarba berish, tutqunlikda tutish, bo'g'ish, do'pposlash, kaltaklash, tepkilash, qurol ishlatish, kuydirish orqali zarar etkazish, jabrlanuvchini ijtimoiy yoki tibbiy yordam olishi ustidan to'liq nazorat o'rnatish va shu kabilar”.

Jinsiy zo'rvonlik – “xotin-qizlarning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shuningdek zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga etmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlashni anglatadi. Bu tardagi zo'rvonlikka untazam ravishdagi jinsiy zo'rqlashga nisbatan bosim o'tkazish, kuch ishlatish, qo'rqitish yoki shantaj qilish orqali jinsiy aloqa qilishga majburlash (zo'rlab nomusga tegish, ayol uchun maqbul bo'lmagan ko'rinishlarda jinsiy aloqa qilishga majburlash; boshqa shaxslar ko'z o'ngida jinsiy aloqa qilishga majburlash; bolalar yoki uchinchi shaxslar bilan jinsiy aloqa qilishga majbur qilish; jinsiy aloqa qilishga majburlash yoki jinsiy aloqa qilishga yo'naltirilgan harakatlar bilan jabrdiydaga og'riq va sog'ligiga ziyon etkazish va hokazo). Intim hamkor tomonidan zo'rvonlik ko'rsatish – bu nazorat qilinuvchi hatti-harakatlarni mujassam etuvchi jismoniy tajovuz, jinsiy aloqa qilishga psixologik majburlash va boshqa turli tazyiqlarni o'zida namoyon qiladigan, ayni paytdagi yoki avvalgi intim hamkor tomonidan amalga oshiriladigan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zarar etkazish”.

Ruhiy zo'ravonlik – “xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitish, reproduktiv sohada nazorat qilish, o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar etkazgan harakat (harakatsizlik)ni anglatadi. Bularga tahqirlash, qo'rqitish, majburlash va tutqunlikda tutishda namoyon bo'ladi. U o'zida haqoratli so'zlar, fikrlarni, hislarni, o'ylarni, e'tiqodni, harakatlarni doimiy ravishdagi tanqid qilish; doimiy so'roqlar, shantajlar, uydan chiqib ketish va ketganda ham bolalarni o'zi bilan olib ketish bilan, o'z joniga, jabrdiydaga yoki bolalarga qasd qilish qo'rqitish; bolalarga, ota-onaga, uy hayvonlariga nisbatan zo'ravonlik sodir etish; jihozlarga ziyon etkazish; jabrdiydani doimiy nazorat ostida tutish yoki uning atrofida qilari bilan muloqot o'rnatishini, telefon orqali so'zlashuvini cheklab qo'yish; rashkning eng yuqori darajadagi ko'rinishini namoyon etish, ta'qib qilish, yuzaga keladigan har qanday muammolarda hamkorni ayblash, uyqu, ovqat eyish jarayonlarini buzish va hokazolar”.

Tazyiqqa uchragan jabrdiydani zo'ravon tomonidan tutqunlikda ushlash zo'rlik ko'rsatishning eng ko'p uchraydigan usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu zo'ravonning jabrdiyda oilasi bilan birga barcha ijtimoiy munosabatlarini sekin-astalik bilan buzib borishida namoyon bo'ladi. Natijada ayollar tashqi tomonda yordam kutishni umid qilmay qo'yadilar, oqibatda tashqi muhit bilan uzilish yuzaga keladi, va zo'ravon shaxs jabrdiyda uchun yakka-yu-yagona oyna bo'lib qoladi, oyna esa aslida – qiyshiq.

Iqtisodiy zo'ravonlik – “xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga bo'lgan huquqi-ni, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik)ni anglatadi. Bu turdagi zo'ravonlikka hamkor ustidan nazoratni o'rnatish uchun pulidan foydalanish. Bu bolalarni boqishdan bosh tortish, moliyaviy qarorlarni faqat o'zi qabul qilishi, hamkorning pulni so'rab olishi va har qanday xarajatlar bo'yicha to'liq axborot berishi bilan bog'liq vaziyatni yuzaga keltirish, daromadni yashirish, oilaga tegishli bo'lgan pullarni sarflash, ishlashga ruxsat bermaslik yoki aksincha ishlashga majbur etish, ishlab topilgan pulni tortib olib qo'yish va hokazolardir”. Bu holda, masalan, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishda bolalar yoki ayolning ehtiyojlarini inobatga olmaslik natijasida ular o'zlarining yoshlariga xos bo'lgan vitaminlarni olishdan mahrum bo'ladilar; xotin, xaridlarni amalga oshirar ekan, to'lov cheklari bilan birga axborot berishi lozim bo'ladi va hokazo.

Bugungi kunda keng tarqalgan zo'ravonlikning yana bir turi — kiber zo'ravonlik. Zo'ravonlikning ushbu turi internet orqali mutassil davom etuvchi, takroriy va uzoq vaqt davomida birovning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlarni amalga oshirishda ifodalanadi. Ruhiy zo'ravonlikdan zulm o'tkazayotgan shaxs anonimligi, Internet orqali yoqimsiz xabarlar tunu kun keng ommaga tarqalishi bilan farqlanib, jabrlanuvchiga g'oyat katta azob-uqubat keltirishi bilan keskin farqlanadi. Internet tarmog'idan foydalanib, ish yoki o'qish joyi, oilada turli xil haqoratlar, tuhmat, ta'na, mish-mishlar, uydirma xabarlar tarqatishda ifodalanadi. Shuningdek, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali insoning ruhiyatiga qattiq ta'sir etuvchi, uni iztirobga soluvchi beshafqat munosabat va zo'ravonlik sahnalarini namoyish etishni ham shaxsga bo'lgan zo'ravonlik, deb e'tirof etishimiz mumkin.

Ayollarning kamsitilishi, tahqirlanishi aksariyat hollarda o'z yaqinlari, oila a'zolari tomonidan etkazilishi bu masalaga nihoyatda jiddiy yondoshish talabini qo'yadi. O'z oilasi a'zolari, yaqinlari tomonidan tahqirlangan xotin-qizlar ota-onasi, aka-ukasi, eri, qaynona-qaynotasi tomonidan huquqlari toptalganini ovoza qilish, bu haqda tegishli tashkilotlarga arz qilish kabilardan or qiladi. O'z navbatida ayolning tahqirlanayotganini ko'rib-bilib turgan qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y oila ichidagi muammolarga aralashmaslikka harakat qiladilar. Shunday vaziyatlar bo'ladi-ki, notinch oila haqida xabar berishga jur'at etgan qo'ni-qo'shnilar yoki tahqirlangan ayolning o'zi qattiq tazyiq ostiga olinadi. Bunday tazyiqdan qo'rqib tegishli tashkilotlarga topshirilgan arizalar qaytarib olinadi. Mahalliy aholi hududlarida ish faoliyatini olib borayotgan “Fuqarolar yig'ini” hodimlari, mahalla tinchligini saqlash bo'yicha militsiya hodimlari aksariyat hollarda arizaning nima sababdan qaytarib olingani sababini bilishga qiziqmaydilar. Qaytarib olingan ariza bo'yicha ish yopilib, muammoga barham beriladi, go'yo. Biroq, muammoning fojeasi aynan ana shu erdan boshlanadi. Qilingan jinoyat jazosiz qolgani sababli himoyasiz ayolni tahqirlash yanada kuchayadi. Bu esa og'ir vaziyat, ba'zi hollarda hatto qotillik sodir etilishiga olib keladi.

Erkak kishining o'zini oilaning yakka hukmdori hisoblashiga, xotini va bolalari taqdirini qanday hohlasa shunday hal qilishiga nafaqat O'rta Osiyo davlatlarida, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida oddiy holdek qarab kelingan. Bu hol Afrika, Hindiston, Afg'oniston mamlakatlarida ayniqsa kuchli. Ko'p hollarda tengsizlikning bu ko'rinishini milliy an'ana bilan bog'lash orqali oqlashga harakat qilingan. Sun'iy ravishda milliy an'ana niqobi kiydirilgan zo'ravonlikning oqibatlari esa jazosiz qolib ketavergan.

XULOSA

Jamiyat salohiyatiga putr etkazmaslik maqsadida oila ichidagi jinoyatlar yashirilgan, oila-mustahkam qo'rg'on sifatida tarannum etilgan. Keyingi paytlarda ommoviy axborot vositalari oiladagi fojeaviy voqealarga katta e'tibor qaratdi. Buning natijasida oiladagi zo'ravonliklar keng jamoatchilik o'rtasida muhokama qilina boshladi. O'z qismatini oshkor qilishdan uyalgan ayollar sekin-asta oiladagi zo'ravonlik haqida gapira boshladilar. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik muammolari bilan ish olib boradigan jamoatchilik tashkilotlari tashkil etila boshladi.

Oiladagi zo'ravonlik jabrdiydalari asosan, xotin-qizlar va bolalardan iborat ekani bu muammoni bartaraf etish naqadar tezkor zarurat ekanini ta'kidlaydi. Mutaxassislar oiladagi zo'ravonlikni turlarga bo'lib izohlaydilar: hissiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, shahvoniy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik.

Bugungi kunda uydagi zo'ravonlikka - bu jinoyat emas, shunchaki janjal, oila ishi, deb qarash noto'g'ri talqin ekanligi yuz foiz isbotlandi. Zo'ravonlik shunchaki oilaviy ish deb qaralgan chog'da hech qanday jinoyatga kirmaydi. Demak, jinoyat yo'q joyda jazo ham bo'lmaydi.

Oiladagi zo'ravonlik esa jinoyatdir. Oiladagi jinoyat jazolanadigan jinoyatdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonning qadr-qiymati dahlsizligini, har kim o'z sha'ni va qadr-qiymatini himoya qila olish huquqini belgilab qo'ygan. Jinoyat kodeksi moddalariga muvofiq, maishiy zo'ravonlikda aybdor shaxslar ma'muriy javobgarlikka, ular hatti-harakatida jinoiy huquqbuzarlik bo'lganida jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” ги ЎРҚ-561-сонли Қонуни// <https://lex.uz/docs/4494709?ONDATE2=21.04.2021&action=compare>
2. Латипова Н.М. Ўзбекистонда оила ва болаларни ижтимоий ҳимоя қилиш. Социология фан доктори (DSc) дис.автореф.-Тошкент: 2020.-58 б.;
3. Мусурмонова О. Оила маънавий-миллий ғурур. –Т: Ўқитувчи, 1999;
4. Нишоновна Н.Р. Ўзбекистон давлат бошқаруви тизимида хотин-қизлар фаолиятининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фан доктори (DSc) дис.автореф.-Тошкент: 2019.- 58 б.;
5. Холматова М.Х. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. –Т: Ўзбекистан, 2001;
6. Маткаримова Г.А. Халқаро ва миллий ҳуқуқда аёлларнинг гендер ва репродуктив ҳуқуқлари: Юрид. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, 2002. – Б.42;
7. Насруллаева Х. Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоийлашуви жараёнининг фалсафий таҳлили: Фалсафа фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2000. – Б.137;
8. Жўраева Н.Д. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни. Тарих фан. номз...дис. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.автореф. –Тошкент: 2004. – Б.16;
9. Нурматова М. Хотин-қизлар интеллектуал салоҳиятини ошириш – мамлакат тарққиётининг муҳим омили. Тошкент:2018;
10. Султонова Э.Аёл давлатнинг ривожланиш стратегиясида (Глобал муаммо сифатида): Сиёсий фанлар д-ри ... дис.автореф. – Тошкент: 2005. – Б.42;